



AN’ANA VA ERKINLIK TO‘QNASHUVI

Urolova Marjona Xasan qizi,
ToshDO‘TAU 1-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207452>

***Annotasiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda va uzoq o‘tmishdan buyon asosiy mavzu bo‘lib kelayotgan qaynona-kelin kelishmovchiligi, ko‘p kelinlar o‘rtasida nizolar va kulgu ortidagi achchiq haqiqatlar ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan taklif va tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.*

***Kalit so‘zlar:** Qaynona, kelinlar, nabiralar, teatr, siyosat, erkinlik.*

Nazariy ma’lumotlarga ko‘ra, komediya bu hodisa, voqea va xususiyatlar kulgili ko‘rsatilgan drama turi hisoblanadi. Komediya ijtimoiy hayotdagi nuqsonlar, kishilarning ongi va xarakteridagi yaramas xususiyatlar kulgi vositasi bilan tanqid etiladi, jamiyat hayotidagi eskirib qolgan hodisalarga zarba beriladi. Hayotning rivojlanish qonuni oldida umri tugagan narsalar, sarqitlar kulgili ahvolga tushib qoladi. Bularni qalamga olish orqali komediya yaratiladi.

Komediya Yunonistonda xudo Dionis sharafiga o‘tkazilgan xalq bayramlarida paydo bo‘lgan. Yorqin siyosiy komediyalar yaratgan Aristofan (miloddan avvalgi 5 – 4-asrlar) komediyaning “otasi” hisoblanadi. Rimda (miloddan avvalgi 3 – 2-asrlar) Plavt va Terensiy atoqli komediyachilar bo‘lishgan.

O‘zbek adabiyotida Yevropa adabiyoti andozasidagi komediyalar 20-asrda paydo bo‘ldi. Bu janr taraqqiyotiga Hamza (“Maysaraning ishi”), Abdulla Qahhor (“Tobutdan tovush”), Sayd Ahmad (“Kelinlar qo‘zg‘oloni”), Erkin Vohidov (“Oltin devor”), Hamid G‘ulom (“Toshbolta oshiq”), Bahrom Rahmonov (“Surmaxon”), Sharof Boshbekov (“Temir xotin”) va boshqalar munosib hissa qo‘shdilar. Komediyaning har xil turlari bor. Voqealar chalkashligi tufayli tomoshabinda kulgi tug‘diradigan (V. Shekspirning “Xatolar komediyasi”), qahramonlar kulgili holatlarga tushgan (Hamza, “Maysaraning ishi”), kishilar xarakteridagi bema’ni xususiyatlar kulgili qilib ko‘rsatilgan (Molyer, “Tartyuf”; Abdulla Qahhor, “Ayajonlarim”; E.Vohidov, “Oltin devor”) komediyalar mavjud. Shuningdek, komediyalar kulgining tavsifiga ko‘ra, satirik (voqelik, shaxslar satira qamchisi ostida g‘azab-nafrat uyg‘otadigan, zaharxandali qilib ifodalangan – N.Gogol, “Revizor”, Abdulla Qahhor, “Tobutdan tovush”), yumoristik komediya (voqelik, shaxslarning ayrim jihatlari beozor kulgi tug‘diradigan komediya – Gotssi, “Malikai Turandot”,

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Said Ahmad, “Kelinlar qo‘zg‘oloni”, Hamid G‘ulom, “Toshbolta oshiq”) va tragikomediya (tragik va komik holatlar mujassamlashgan – R.Muhammadjonov “Suyunchi” filmi) turlariga bo‘linadi. 20-asrda komediyaning tragikomediya (L.Pirandello, J.Anuy), tragifars (E.Ionesko) janr shakllari maydonga keldi.

Bugungi kundagi o‘zbek kino olamida, nafaqat o‘zbek balki barcha kinolarning asosiy mavzusi qaynona-kelin mojarolari, ro‘zg‘ordagi kamchiliklar, ovsinlar kelishmovchiligi-yu, oilaviy muhit manzalari aks etadigan bo‘lib qolgan. Ko‘pchilik aholi bunday mavzulardan bezib qolgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ammo bunday mavzudagi kino va kitoblar avval ham bo‘lganidek, bundan keyin ham bo‘ladi. Asosiysi, mavzuning eski-yangiligi emas, yozuvchining xalqqa qanday yetkazib berishida. Mavzu qanchalik eski yoki siyqasi chiqqan bo‘lmasin, boshqalar fikridan yangi fikr aytish, hech kim yoritib bera olmagan tomonini ko‘rsata bilishdadir.

Tahlilga tortganimiz Said Ahmadning 1976-yilda yozilgan “Kelinlar qo‘zg‘oloni” hajviy sahna asari va u asosida 1984-yil suratga olingan kino komediya yoki spektaklini esga olsak har bir insonning yuda tabbasum paydo bo‘ladi. Bularning yaratilganiga ancha yillar bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirgacha televizor va teatr sahnalarida namoyish qilinadi. Ushbu kinoni qancha ko‘p ko‘rsak ham toymaymiz. Chunki bu asarni yozuvchi o‘lmas qilib yozgan. Bundan tashqari asar bilan kino va spektakldagi ba‘zi qahramonlar to‘g‘ri kelmaydi ya‘ni kinodagi suyuqli nabira Abbos asarda ham, spektaklda ham uchramaydi. Yoki asardagi Usta Boqi va Farmonbibining Azim Sherni tushida ko‘rgani haqidagi suhbat hech qanday sahna yo‘q. Bu yerda endi rejissyor va senaristlarning mahoratiga ham bog‘liq hisoblan tanganining ikki tomoni bo‘lganidek, bu asarni ham ikki xil ma‘noda tushunish mumkin.

Birinchidan, bu asarda yoki spektaklda bir qaynonaning ellik olti kishini bir uyda olib o‘tirish mahorati. Qaynona-kelin muammosi, oilaviy kelishmovchiliklar, balki o‘g‘illarning onasiga bo‘lgan hurmati, mehri onaning qattiqqo‘llik ortidagi otashin muhabbati aks etgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Farmonbibining qanchalik nabiralariga mehribon ekanini ushbu gaplari orqali tushunib olsak ham bo‘ladi: “Mana bu 20 so‘mni qizingga jo‘nat. Moskvadek joylarda pulga zor bo‘lmasin. Hozir imtihonlar avj olgan vaqt bolam bechora boshqalarning qo‘liga qarab qolmasin. Bilib qo‘y, qiz bolaning pulga zor bolishi yomon yo‘lga olib keladi. Shoshma. Mana bu 10 tiyinni ham qo‘shib jo‘nat” Qaynona-kelin yoki oilaviy maommlarning shunchaki kulgu ostidagi yechimi mahorat bilan yoritib berilgan. Har bir qiz bolaning o‘zi ota uyidan boshqa bir oilaga kelin bolib ketishi, ikki oila o‘rtasidagi quda-andachilik

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



qarindoshlik munosabatlarining o‘rnatilishi haqida fikrlar yuritilgan desak yolg‘on bo‘lmaydi.

Kelinlar qo‘zg‘olonidagi voqealar ayni hozirgi hayotimizda ham yuz berayotgan hodisalar desak yolg‘on bo‘lmaydi. Chunki hozirgi kunda ham makkora kelinlar, bemehr qaynonalar yo‘q deya olmaymiz. Asar voqelari juda qiziqarli tasvirlanadi, Farmonbibi shu yoshgacha hech kimga bosh egamagan ayol hisoblangan, ammo endi kelganiga o‘n kun bo‘lgan Nigora pensiyasini yo‘q qilishi bilan qo‘rqitishi yoki “bitta yomon buzoq, butun podani bulg‘aydi” deganlaridek endigina kelgan kelin qolgan oltita kelinning ko‘zini ochishi, ya’ni qaynonasiga qarshi kurashi kulgu ostida mahorat bilan yoritib berilgan.

Asarda oilaviy tinchlik, erkinlik, mehr-muhabbat kabilar naqadar aziz va bebaho tuyg‘u ekanligi juda mahorat bilan tasvirlangan.

Ikkinchi muhim jihat shundaki, bu asar ortida o‘sha davr holatini, jamiyatdagi insonlarning qalbidagi hislarini uyg‘otish uchun yozilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Tarixdan bizga ma’lumki, o‘sha vaqtlar o‘zini daho deb o‘ylagan SSSR hukumati o‘ziga qaram qilib olgan o‘n beshta respublikadan har yil oxirida plan topshirish kerakligi va shu bilan birga ularning tayyor mahsulotlarini, yer osti qazilma boyliklarini o‘zlashtirib olgan. Dehqonlar kecha-yu kunduz tinmay ekan paxta va bug‘doylarini bir chanog‘ini ham o‘zi uchun ololmagani aks etgan. Xo‘sh, sizda savol paydo bo‘lishi mumkin qanday qilib qaynona kelin mojarolari haqidagi asarda SSSR holati aks etgan deb? Farmonbinining har oy oxirida bir so‘m ham qoldirmay kelin va o‘g‘illaridan oyliklarini yig‘ib olishi, o‘qimishli insonlarning erkin fikrlay olmasligi yuqoridagi fikrlarga yaqqol misol bo‘la oladi.

Faqat jon saqlash uchun mustamlaka mamlakatlarga pul ajratilgan, xuddi Farmonbibi ishga borib-kelishlari uchun ma’lum miqdorda pul ajratib bergani kabi. Yoki o‘sha vaqtda har bir joyda Sottiga o‘xshagan, boshqalarning yurgan qadami-yu nafas olganini poylab yuruvchi, tashkilotdagi ishchilar ustidan har xil bo‘hton, tuhmatlarni SSSR ga yetkazib turuvchi “quloq”lar bo‘lmagan deb o‘ylaysizmi? Qanchadan qancha halol, yurtparvar ota-bobolarimiz shu shipyonlar sabab vafot etgan bo‘lsa ajab emas. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” asarida ham Nigoraning biz qaysi “xonlik davrida yashayapmiz”, “XVI asrda yashayapmizmi”, “biz qul emasmiz”, “feodallik davri tugatilishi kerak” kabi gaplari bekorga aytilmagan, yozuvchi kichik kelin tasviri bilan jamiyatdagi insonlarning ongini uyg‘otmoqchi bo‘lgan.

O‘g‘illaridan Mahkamning aka-ukalari va kelinlarga qarata: “Kenja kelinning ta’nalari to‘g‘ri, bu bir, yangi kelgan odam ahvolimizni darrov biladi, bu ikki.

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



O‘zimiz sezmaymiz, o‘rganib ketganmiz, bu uch. Uyat, uyat, uyat, bu to‘rt”, degan gaplari orqali xalqqa sening SSSRdan ajralib chiqish vaqtining keldi, qara, seni qo‘g‘irchoq qilib qo‘lida o‘ynatayapti degan fikrlarni anglash mumkin. Yozuvchi bu asar orqali erk uchun kurash, qaramlik, tobelik iskanjasidagi xalqni ozodlik uchun kurashga undaydi.

Doimo kulgu ortida juda katta ma‘no bo‘ladi. Kulib turgan insoning ko‘zlariga yaxshilab qaralsa, qalb og‘riqlari xabardor bo‘lasiz. Satirik ruhdagi asarlarda ham xuddi shunday kulguli misralar ortida kuchli o‘y-fikrlarga chorlovchi qalb yashiringan bo‘ladi. “Kelinlar qo‘zg‘oloni”da ham bir oila misolida jamiyat hayoti ko‘rsatib berilgan. Tinchlikka, erkinlik va ozodlikka faqatgina ahillik bilan erishib bo‘lishi mumkin ekanligi yoritib berilgan. Bir so‘z bilan aytganda, yozuvchi faqatgina asari orqali xalqni ozodlikka, erkinlik va mustaqillikka chorlagan.

Hozirgi kundagi kino va asarlarimizda ham haqiqiy yozuvchilik mahorati va iste‘dod bilan hayotimizdagi global muammolar aks ettirilsa, qo‘ldan qo‘lga o‘tib o‘qiladi, o‘yinayi jahon ekranlaridan bir daqiqa ham tushmay tomosha qilinadi. “Kelinlar qo‘zg‘oloni” ana shunday o‘lmas asarlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Said Ahmad. Kelinlar qo‘zg‘oloni. -T: Sharq nashriyoti, 2000.
2. Do‘stmatov Hikmatillo. Askiya va so‘z o‘yinlari. -T: Sharq nashriyoti, 2022.
3. To‘rayeva B.Ko‘chimov. Adabiyotshunoslik. -T-: Malik print nashriyoti, 2022.
4. Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari” T-: Noshir nashriyoti, 2019.